

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/07.06.2024.T.106.07
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

O‘TBOSAROV SHUXRATJON RUSTAMJON O‘G‘LI

**YUQORI BOSIMLI SUV OMBORLARI SUV CHIQARISH VA SUV TASHLASH
INSHOOTLARI KONSTRUKSIYALARINI MODELLASHTIRISH**

05.09.07 – “Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi”

**TEXNIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona-2025

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

О'тbosarov Shuxratjon Rustamjon o'g'li

Yuqori bosimli suv omborlari suv chiqarish va suv tashlash inshootlari konstruksiyalarini
modellash tirish..... 3

Ўтbosаров Шухратжон Рустамжон ўғли

Моделирование конструкции водовыпуска и водосброса высоконапорных
водохранилищ..... 23

Utbosarov Shukhratjon Rustamjon ugli

Modeling of Water Release and Spillway Structures of High-Pressure
Reservoirs..... 46

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 50

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/07.06.2024.T.106.07
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

O‘TBOSAROV SHUXRATJON RUSTAMJON O‘G‘LI

**YUQORI BOSIMLI SUV OMBORLARI SUV CHIQARISH VA SUV
TASHLASH INSHOOTLARI KONSTRUKSIYALARINI
MODELLASHTIRISH**

05.09.07 – “Gidravlika va muhandislik gidrologiyasi”

**TEXNIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/T4781 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg‘ona davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy Kengash veb-sahifasida (www.fstu.uz) va “ZiyoNet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Xudaykulov Savet Ishankulovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nosirov Faxriddin Jaylovovich
texnika fanlari doktori, professor

Jo‘rayev Sherali Sharipovich
texnika fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

**Andijon qishloq xo‘jaligi va
agrotexnologiyalar instituti**

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/07.06.2024.T.106.07 raqamli ilmiy kengashning «30» «12» 2025 yil soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150107, Farg‘ona sh., Farg‘ona ko‘chasi 86-uy. Tel.: (+99873) 241-12-06; faks: (+99873) 241-13-03, e-mail: fstu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ ___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 150107, Farg‘ona sh., Farg‘ona ko‘chasi 86-uy). Tel.: (+99873) 241-12-06 e-mail: fstu_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil «___» _____ dagi ___-raqamli reestr bayonnomasi).

I.T.Karimov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., dotsent

Z.E.Abdulxayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotib, t.f.f.d, dotsent

L.N.Samiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, t.f.d., dotsent.

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda yuqori bosimli suv omborlarining suv chiqarish va suv tashlash inshootlari konstruksiyalaridagi gidravlik masalalarni modellashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Buning sababi suv energetikasiga oid texnik muammolar majmuasining keng qamrovliligi, shuningdek, mazkur xalq xo'jaligi tarmog'iga xos bo'lgan jarayonlar doirasida gidravlik hodisalarning keng ko'lamda uchrashidir. Shu jihatdan suv omborlari, sel-suv omborlari va boshqa suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini hamda ishonchli ishlashini ta'minlash maqsadida suv chiqarish inshootlari gidravlik hisobini takomillashtirgan holda loyihalash va qurishning samarali usullarini ishlab chiqish, ularni samarali boshqarish texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb ahamiyatga ega hisoblanadi¹.

Jahonda gidrotexnik inshootlarning mustahkamligi va ulardan barqaror foydalanish imkoniyatini ta'minlash, jumladan yuqori bosimli suv omborlarining suv chiqarish va suv tashlash inshootlarida yuzaga keladigan murakkab gidravlik jarayonlarni hisobga olgan holda, matematik modellashtirish mezonlari asosida inshoot konstruksiyalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan suv chiqarish va suv tashlash inshootlari konstruktiv elementlariga oqimning ta'sirini aniqlash, oqimning fazoviy-parametrik xususiyatlarini sonli usullar asosida o'rganish orqali inshootlarning optimal parametrlari va ishonchli ish rejimlarini asoslash ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada yuqori bosimli suv omborlari konstruksiyasini takomillashtirish, suv omborlarining suv chiqarish va suv tashlash inshootlaridagi oqim dinamikasini tavsiflovchi matematik modellashtirish algoritmlaridan foydalanish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalar (CFD, RANS-SST modeli va boshqalar) asosida modellashtirish natijalarini amaliy loyihalashda joriy etish masalalari dolzarb hisoblanmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda yuqori bosimli suv omborlarining suv chiqarish va suv tashlash inshootlarida oqim dinamikasini modellashtirish yuzasidan samarali ishlar olib borilmoqda. "...Suv omborlarini suv bilan to'ldirish va suvni chiqarish rejimi tartibini ishlab chiqish hamda ilmiy tadqiqotlar natijalari asosida suv omborlari, sel-suv omborlari, boshqa yirik suv xo'jaligi obyektlari, daryolar va gidrotexnika inshootlarining xavfsizligini ta'minlash, ishonchligini oshirish va ularni ishlatish bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqish..."² bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, suv omborlaridan suv chiqarish rejimi tartibini ishlab chiqish va aniqlash uslubini takomillashtirishda ularga ta'sir etuvchi omillarni inobatga olgan holda oqim dinamikasini modellashtirish, suv tashlash inshootining konstruktiv-texnologik yondashuvini aniqlash va tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

¹ "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020 — 2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 10.07.2020 yildagi PF-6024-son

² "O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 06.04.2021 yildagi PQ-5055-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 10-iyuldagi PF-6024-son “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari va 2019-yil 9-oktyabrdagi PQ-4486-son «Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» va 2019 yil 25-oktyabrdagi PQ-4499-son “Qishloq xo‘jaligida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etishni rag‘batlantirish mexanizmlarini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining IV. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, suv muammolari, ekologiya va atrofmuhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi: Hozirgi vaqtda suv omborlarining ta’sir ko‘lami, ularning dinamikasi hamda yuqori bosimli suv omborlarida suv chiqarish va suv tashlash inshootlari konstruksiyasini modellashtirish masalalari dolzarb hisoblanadi. Yuqori bosimli suv omborlari suv chiqarish va suv tashlash inshootlaridagi oqim dinamikasining nazariy asoslari va hisoblash usullaridagi muammolar A.B.Avakyan, S.T.Altunin, K.M.Berkovich, V.F.Brekhovskix, X.A.Ismagilov, A.V.Karashev, O.A.Kayumov, A.B.Kitaev, Yu.M.Matarzin, D.A.Nikiforov, Ya.F.Pleshkova, Sh.R.Pozdnyakov, L.V.Potapov va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida bayon etilgan hamda ilmiy asoslangan ijobiy natijalarga erishilgan.

Xususan, suv chiqarish inshootlari konstruksiyalarining maqbul parametrlarini ishlab chiqish, ularda yuzaga keladigan gidravlik jarayonlar hamda qonuniyatlarini o‘rganish, ularni hisoblash usullari bo‘yicha bir qator mahalliy olimlar J.F.Fayzullaev, K.Sh.Latipov, A.A.Xamidov, A.M.Arifjonov, O.Sh.Bozorov, B.X.Xujayorov, S.I.Xudayqulov, A.M.Fatxulloyev, I.K.Xujaev, Z.M.Malikov, U.U.Jonqobilov va boshqa olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlar olib borilgan.

Bugungi kunda ushbu yo‘nalishda olib borilgan keng qamrovli ilmiy va amaliy tadqiqotlarga qaramasdan, yuqori bosimli suv omborlari suv chiqarish va suv tashlash inshootlari xavfsizligini baholashda matematik modellashtirish orqali gidravlik hisob ishlarini amalga oshirish masalalari yetarlicha o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti “Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti”ning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq KXA-A-QX-2018-291 “Yuqori bosimli to‘g‘onlardagi tutashuvchi oqimlar konstruksiyasini takomillashtirish va hisoblash usullarini ishlab chiqish” (2018 - 2020 y.y.) mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yuqori bosimli suv omborlarining suv chiqarish va suv tashlash inshootlarida yuzaga keladigan gidrodinamik jarayonlarni baholash orqali ularning ish rejimini tavsiflovchi matematik modellashtirish usullarini takomillashtirish hamda zamonaviy raqamli texnologiyalar (CFD, RANS-SST modeli va boshqalar) asosida modellashtirish natijalarini amaliy loyihalash va ekspluatatsiya jarayonlariga integratsiyalashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yuqori bosimli suv chiqarish va suv tashlash inshootlari bo'yicha ilg'or ilmiy manbaalarni tizimli tahlil qilish va ularning konstruksion, gidravlik hamda ekspluatatsion xususiyatlarini baholash.

Karkidon suv omborining suv chiqarish va suv tashlash inshootlarida suv oqimining dinamikasini matematik modellashtirish, oqimning fazoviy-parametrik xususiyatlarini sonli usullar asosida o'rganish.

gidrodinamik hisoblashlar asosida Karkidon suv ombori suv tashlash inshootlaridagi oqimning qarshilik koeffitsientlarini aniqlash.

suv tashlash inshootining burilish qismida hosil bo'ladigan bosim va tezlik taqsimotlarini hisobiy modellashtirish orqali tajriba natijalari bilan taqqoslash, modellar ishonchliligini verifikatsiyalash va kalibrlash.

Tadqiqotning obykti sifatida Farg'ona viloyatidagi Karkidon suv omborining suv chiqarish va suv tashlash inshootlari olingan.

Tadqiqotning predmetini gidrodinamika usullari, hisoblash mexanikasi matematik modellari va suv omborlarining suv chiqarish hamda suv tashlash dinamikasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida "Tezlik maydon", modellashtirish orqali topilgan yechimlarni eksperiment natijalari bilan taqqoslash, gidravlika va gidrologiyada umum qabul qilingan uslublar, matematik modellashtirish va ularni sonli yechish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Karkidon suv ombori suv chiqarish inshootida ikki fazali oqim muhitida CFD modellashtirish asosida zatvorga ta'sir etuvchi gidrodinamik bosimlar, ularning pulsatsion harakteri va energiya yo'qotishlar bilan bog'liq qonuniyatlari aniqlangan hamda ikki fazali oqimning zatvor konstruksiyasiga ta'siri gidrodinamik qonuniyatlar asosida baholangan;

suv chiqarish inshootlari kirish qismlaridagi gidravlik qarshilik koeffitsientlarini inobatga olib, bu orqali turli shakldagi kirish qismlarining oqim barqarorligiga ta'siri baholanib, energiya yo'qotishlarni kamaytirish va oqim ajralishi ehtimolini pasaytirishni ta'minlovchi elliptik va silliq o'tishli kirish konturlari maqbul konstruksiya shakllari sifatida tavsiya etilgan;

yuqori bosimli suv omborlarining suv chiqarish va suv tashlash inshootlaridagi oqim dinamikasini tavsiflovchi matematik modellashtirish algoritmlaridan foydalanib, inshoot burilish qismidagi oqim tezligi va bosim taqsimotini hisoblash usullari mahalliy gidravlik qarshiliklar hamda burilish geometriyasining ta'sirini hisobga olgan holda takomillashtirilgan.

Karkidon suv ombori misolida suv chiqarish va suv tashlash inshootining burilish qismidagi bosim va tezlik taqsimotlari CFD, xususan, turbulentslikning

SST modeli yordamida modellashtirilib, olingan hisobiy natijalar eksperimental hamda amaliy ko'rsatkichlar bilan solishtirilganligi, bunda SST modeli bo'yicha nisbiy xatolikning o'rtacha 2,32% ni tashkil etganligi sababli, matematik modelning ishonchliligi tasdiqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ikki fazali muhitga oqim chiqish dinamikasini tavsiflovchi matematik modellashtirish ifodalari orqali chiqish qismidagi konusli zatvorga ta'sir etayotgan bosimni yuqori aniqlikda hisoblash imkoniyati yaratilgan;

suv tashlash inshootlari kirish qismlarida gidravlik qarshilik koeffitsientlari aniqlashtirilgan hamda turli shakldagi kirish qismlarining (elliptik, dumaloq, burchakli) samaradorligi baholanib, optimal konstruktiv konturlarni tanlash metodikasi takomillashtirilgan;

inshoot quvurining burilish qismlarida bosim va tezlik taqsimotlari aniqlangan hamda ular Karkidon suv omborining real inshoot sharoitlarida CFD modellashtirish asosida sinovdan o'tkazildi va tajriba ma'lumotlari bilan taqqoslanib, adekvatligi isbotlangan;

suv tashlash inshootlarida oqim dinamikasini modellashtirish asosida bosim va tezlik taqsimotlarini hisoblash usullari ishlab chiqilgan va bu asosida olingan natijalar amaliy loyihalash jarayonida qo'llash uchun tavsiya etilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan natijalarning fizikaning umumiy qonunlari va matematik modellashtirish usullariga asoslanganligi, ularning haqqoniyligi tajriba ma'lumotlari hamda boshqa olimlar tomonidan olingan ilmiy ishlanmalar bilan solishtirish orqali tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati yuqori bosimli suv chiqarish va suv tashlash jarayonlarini aniqlash va bashorat qilish bo'yicha usullarni takomillashtirish imkoniyatini berishi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati yuqori tezlikdagi oqimlarning inshoot zatvoriga bosim ta'sirini o'rganish orqali zatvorning zararlanish darajasini baholash imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotlar natijalarining joriy qilinishi. Yuqori bosimli suv omborlari suv chiqarish va suv tashlash inshootlari konstruksiyalarini modellashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Karkidon suv ombori suv chiqarish inshootida ikki fazali oqim muhitida CFD modellashtirish asosida zatvorga ta'sir etuvchi gidrodinamik bosimlar, ularning pulsatsion harakteri va energiya yo'qotishlar bilan bog'liq qonuniyatlari aniqlangan hamda ikki fazali oqimning zatvor konstruksiyasiga ta'siri gidrodinamik qonuniyatlarda baholanganligi hamda suv chiqarish inshootlari kirish qismlaridagi gidravlik qarshilik koeffitsientlarini inobatga olib, bu orqali turli shakldagi kirish qismlarining oqim barqarorligiga ta'siri baholanib, energiya yo'qotishlarni kamaytirish va oqim ajralishi ehtimolini pasaytirishni ta'minlovchi elliptik va silliq o'tishli kirish konturlari maqbul konstruksiya shakllari yuzasidan takliflar "Farg'ona viloyati suv omborlaridan foydalanish boshqarmasi" faoliyatida foydalanilgan (Suv xo'jaligi vazirligining 2024-yil 23-sentabr 05/13-3443-son ma'lumotnomasi). Natijada yuqori bosimli suv tashlash inshootlari

konstruksiyalariga turbulent oqim ta'siri baholanib, inshootdan xavfsiz va samarali foydalanish imkoniyati yaratilgan;

yuqori bosimli suv omborlarining suv chiqarish va suv tashlash inshootlaridagi oqim dinamikasini tavsiflovchi matematik modellashtirish algoritmlaridan foydalanib, inshoot burilish qismidagi oqim tezligi va bosim taqsimotini hisoblash usullari mahalliy gidravlik qarshiliklar hamda burilish geometriyasining ta'sirini hisobga olgan holda takomillashtirilganligi hamda Karkidon suv ombori misolida suv chiqarish va suv tashlash inshootining burilish qismidagi bosim va tezlik taqsimotlari CFD, xususan, turbulentlikning SST modeli yordamida modellashtirilib, olingan hisobiy natijalar eksperimental hamda amaliy ko'rsatkichlar bo'yicha tavsiyalar "Sirdaryo So'x ITHB" faoliyatida foydalanilgan (Suv xo'jaligi vazirligining 2024-yil 23-sentabr 05/13-3443-son ma'lumotnomasi). Natijada inshootning suv chiqarish qismidagi konusli zatvorga ta'sir etadigan kuch va bosimni SST modeli bo'yicha aniqlashdagi nisbiy xatolikni o'rtacha 2,32% ga kamaytirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari xalqaro, respublika va universitetlar miqyosida anjumanlarda muhokama qilingan va ma'qullangan, jumladan 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 3 tasi Respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan, 5 ta maqola xalqaro va mahalliy konferensiya materiallarida chop etilgan bo'lib, shulardan, 1 tasi Scopus bazasidagi konferensiyada, 4 tasi xalqaro va mahalliy konferensiyalarda va 2 ta EHM hisoblash dasturi uchun guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 124 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti to'g'risida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Bajarilgan tadqiqotlarning Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalar bayon etilgan. Olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **"Yuqori bosimli suv omborlarida suv chiqarish va suv tashlash inshootlarini tadqiq etishga oid adabiyotlar tahlili"** deb nomlangan birinchi bobida suv omborlari suv chiqarish va tashlash inshootlari

turlari ularning ishlash prinsiplari haqida va joylashuviga ko'ra ularning tasniflari keltirib o'tilgan.


Tahlillardan ma'lum bo'lmoqdaki, yuqori bosimli suv omborlar tarkibidagi suv chiqarish va tashlash inshootlarida oqim odatda yuqori tezlikda bo'ladi. Bu esa o'z navbatida yuqori bosimli suv omborlarining suv chiqarish va suv tashlash inshootlari gidravlik samaradorligi va ekspluatatsion ishonchliligini ta'minlash, ularni loyihalash jarayonida kompleks muhandislik–ilmiy yondashuvni talab etadi.

Olib borilgan tadqiqotlar tahlilidan yuqori bosimli suv omborlari suv chiqarish va tashlash inshootlarining kavitatsiya bilan shikastlanishi, oqim aeratsiyasi va deaeratsiyasining inshootlarga ta'sirini baholashning nazariy asoslarini ishlab chiqish, suv chiqarish jarayonida inshootlardagi bosim va tezlik taqsimoti, shuningdek, turbulent oqimlar bilan strukturaning o'zaro ta'siri oqibatlarini bo'yicha nazariy va amaliy tadqiqotlar olib borish kerakligi asoslangan.

Yuqoridagi tahlillar asosida dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari belgilangan.

Dissertatsiya ishining **“Karkidon suv omborining bosimli suv tashlash va suv chiqarish inshootlaridagi oqim dinamikasini modellashtirish”** deb nomlangan ikkinchi bobida tanlab olingan tadqiqot obyektida inshoot suv chiqarish quvuridan oqimning chiqishidagi bosimni aniqlash, turbulent oqimning inshoot ish tartibiga ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan tahlillar natijalari keltirilgan.

Tadqiqot doirasida ko'rib chiqilayotgan gidrotexnik inshootlarning to'g'on devori materiali tabiiy shag'al-qumli tuproqli turiga mansub bo'lib, ularning konstruktiv yechimida to'g'on tanasida suv o'tkazuvchanlikni kamaytirish uchun maxsus gidroizolyatsion qatlam qo'llanilgan. To'g'on tanasining asosiy materiali shag'alli-qumli gruntlardan tashkil topgan. (1-rasm).




1-rasm. Karkidon suv omborining qirg'oqli suv tashlash inshooti

Tadqiqot davomida suv chiqarish va tashlash inshootining suv chiqish qismidagi ikki fazali turbulent oqim bo'yicha izlanishlar olib borilgan. Ushbu bobda Karkidon suv omborining suv chiqarish va tashlash tizimi CFD yordamida matematik modellashtirildi. Asosiy maqsad — suv tashlash inshooti ichidagi suv harakatini tahlil qilish va uning faoliyati davomida yuzaga keladigan turbulent strukturalarni o'rganishdir. Oqim harakatini tavsiflash uchun RANS (Reynolds Averaged Navier–Stokes) tenglamalari, turbulentlikni modellashtirish uchun esa SST modeli qo'llanildi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi — suv tashlash tizimining samaradorligini baholash hamda turbulentlik va yuqori yuklama yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammoli zonalarini aniqlashdan iboratdir. Olingan

natijalar suv tashlash tizimining loyihasini optimallashtirish va uning ishonchligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Suv diametri 2200 mm bo'lgan quvurdan 5 atmosfera bosim ostida chiqadi (2-rasm).



2-rasm. Karkidon suv omborining suv chiqarish qismining geometriyasi va hisoblash setkasi

Quvur chiqishida konus shaklidagi zatvor o'rnatilgan bo'lib, suv ushbu zatvor ichiga tushadi va keyinchalik ochiq muhitga chiqariladi. Masalaning umumiy geometrik shakli va hisoblash uchun ishlatilgan tarmoq 2-rasmda ko'rsatilgan bo'lib, barcha o'lchamlar metrlarda ifodalangan. Hisoblash jarayonida 8 979 132 dona noaniq strukturali (unstructured) elementlardan iborat tarmoqdan foydalanildi.

Suv chiqish qismidagi ikki fazali turbulent oqimni sonli modellashtirish uchun Reynolds bo'yicha o'rtachalashtirilgan Navier-Stoks tenglamalari (RANS - Reynolds-Averaged Navier-Stokes equations) qo'llaniladi. Bu tenglamalar beqaror oqimni o'rtachalash natijasida hosil bo'ladigan turbulent kuchlanishlarni qo'shish orqali turbulentlik ta'sirini hisobga olish imkonini beradi. Umumiy ko'rinishda turbulentlikni hisobga olgan holda siqilmaydigan suyuqlik uchun harakat tenglamasi quyidagicha yoziladi: Uzlaksizlik tenglamasi

$$\frac{\partial \rho}{\partial t} + \frac{\partial(\rho u)}{\partial x} + \frac{\partial(\rho v)}{\partial y} + \frac{\partial(\rho w)}{\partial z} = 0. \quad (1)$$

Bu yerda ρ – zichlik, u, v, w – tezliklarni komponentalari.

Impuls (harakat) tenglamalari:

$$\begin{cases} \frac{\partial(\rho u)}{\partial t} + \frac{\partial(\rho u^2)}{\partial x} + \frac{\partial(\rho uv)}{\partial y} + \frac{\partial(\rho uw)}{\partial z} = -\frac{\partial p}{\partial x} + \frac{\partial \tau_{xx}}{\partial x} + \frac{\partial \tau_{xy}}{\partial y} + \frac{\partial \tau_{xz}}{\partial z} + \rho g_x, \\ \frac{\partial(\rho v)}{\partial t} + \frac{\partial(\rho uv)}{\partial x} + \frac{\partial(\rho v^2)}{\partial y} + \frac{\partial(\rho vw)}{\partial z} = -\frac{\partial p}{\partial y} + \frac{\partial \tau_{yx}}{\partial x} + \frac{\partial \tau_{yy}}{\partial y} + \frac{\partial \tau_{yz}}{\partial z} + \rho g_y, \\ \frac{\partial(\rho w)}{\partial t} + \frac{\partial(\rho uw)}{\partial x} + \frac{\partial(\rho vw)}{\partial y} + \frac{\partial(\rho w^2)}{\partial z} = -\frac{\partial p}{\partial z} + \frac{\partial \tau_{zx}}{\partial x} + \frac{\partial \tau_{zy}}{\partial y} + \frac{\partial \tau_{zz}}{\partial z} + \rho g_z. \end{cases} \quad (2)$$

Bu yerda τ_{ij} – tenzor kuchlanish, g -gravitatsion kuch.

Tensorga kiruvchi kesim kuchlari odatda quyidagicha yoziladi (Boussinesk gipotezasi):

$$\tau_{ij} = \mu_{\text{eff}} \left(\frac{\partial u_i}{\partial x_j} + \frac{\partial u_j}{\partial x_i} \right) - \frac{2}{3} \rho k \delta_{ij}. \quad (3)$$

bu yerda: $\mu_{\text{eff}} = \mu + \mu_t$ — umumiy (laminar + turbulent) qovushqoqlik, k — turbulent kinetik energiya, δ_{ij} — Kroneker simvoli.

Reynolds bo'yicha o'rtachalashtirilgan Navier-Stoks tenglamalaridan foydalanish oqimdagi turbulent effektlarni hisobga olish imkonini beradi. Bu tenglamalar sonli usullar bilan yechiladi, masalan, chekli elementlar usuli bilan, maxsus dasturlar paketini qo'llagan holda, masalan, Comsol Multiphysics.

SST turbulentlik modellari.

SST (Shear Stress Transport) modeli aerodinamik oqimlarni raqamli modellashtirishda qo'llaniladigan eng keng tarqalgan va samarali turbulentlik modellaridan biridir. U ikkita turbulentlik modelning afzalliklarini birlashtiradi: chegara qatlamidagi tezlik gradiyentlarini aniq tavsiflash uchun devor yaqinida ishlatiladigan k-omega modeli va turbulent dissipatsiyani modellashtirish uchun oqimning asosiy qismida qo'llaniladigan k-epsilon modeli. Bunday kombinatsiya SST modeliga turli sharoitlarda turbulent oqim xususiyatlarini aniqroq va barqarorroq bashorat qilish imkonini beradi.

$$\begin{cases} \frac{\partial(\rho k)}{\partial t} + \frac{\partial(\rho u_i k)}{\partial x_i} = P_k - \beta^* \rho k \omega + \frac{\partial}{\partial x_j} \left[(\mu + \sigma_k \mu_t) \frac{\partial k}{\partial x_j} \right], \\ \frac{\partial(\rho \omega)}{\partial t} + \frac{\partial(\rho u_i \omega)}{\partial x_i} = \alpha \frac{\omega}{k} P_k - \beta \rho \omega^2 + \frac{\partial}{\partial x_j} \left[(\mu + \sigma_\omega \mu_t) \frac{\partial \omega}{\partial x_j} \right] + 2(1 - F_1) \rho \sigma_{\omega 2} \frac{1}{\omega} \frac{\partial k}{\partial x_j} \frac{\partial \omega}{\partial x_j}. \end{cases} \quad (4)$$

Bu yerda k - solishtirma turbulent kinetik energiya ($\text{m}^2 \text{s}^{-2}$), ω - turbulent dissipatsiyaning solishtirma tezligi (s^{-1}).

SST modeli laminar va turbulent oqimlarni o'z ichiga olgan keng ko'lamli oqim rejimlarida turbulent ta'sirlarni aniqroq bashorat qilishni ta'minlaydi. U, ayniqsa, turli oqim rejimlari mavjud bo'lgan erkin sirt va boshqa murakkab geometriyalarni modellashtirishda qo'l keladi. SST modeli chegaraning yaqin qatlamidagi qovushqoqlikning ta'sirini ham, chegaraning uzoq qatlamidagi energiya dissipatsiyasining ta'sirini ham hisobga oladi, bu esa oqimdagi turbulent tuzilmalarni aniqroq tavsiflash imkonini beradi. Bu aerodinamik oqimlarni raqamli modellashtirish bilan shug'ullanadigan muhandislar va tadqiqotchilar uchun SST modelini afzal tanlovlardan biriga aylantiradi.

Turbulent qovushqoqlik quyidagicha aniqlanadi:

$$\mu_t = \frac{\rho k}{\omega} \cdot \frac{1}{\max\left(1, \frac{\alpha^* \omega}{SF_2}\right)}. \quad (5)$$

Ikki fazali oqimlarda ya'ni, suyuqlik va gaz yoki ikki xil suyuqlik fazalari bir vaqtning o'zida mavjud bo'lgan hollarda — fazalar chegarasini aniq aniqlash

va kuzatish zarur bo‘ladi. Bunday holatlarda COMSOL Multiphysics dasturida Level Set metodi qo‘llaniladi. COMSOL’dagi Level Set tenglamasi:

$$\frac{\partial \phi}{\partial t} + \bar{u} \cdot \nabla \phi = \gamma \left(\nabla \cdot \left(\varepsilon \nabla \phi - \phi(1-\phi) \frac{\nabla \phi}{|\nabla \phi|} \right) \right). \quad (6)$$

bu yerda: u oqim tezligi vektori (uch fazada — u, v, w), γ : sirt kuchlanishini boshqaruvchi parameter (re-initialization), ε : fazalar o‘rtasidagi sirt qalinligi (diffuzlik), ϕ : Level Set funksiyasi (fazani ifodalaydi). Level Set yondashuvi orqali fazalar o‘rtasidagi o‘zaro harakat, yuzaga keladigan deformatsiyalar, sirt tarangligi, va boshqa murakkab oqim hodisalari (masalan, pufakchalar, tomchilar, ajralish) aniq modellashtiriladi. Bu ayniqsa suv va havo aralashmasi bilan bog‘liq muhandislik hisoblashlarida dolzarb hisoblanadi.

Ikki fazali turbulent oqimni modellashtirishda COMSOL Multiphysics dasturining Level Set yondashuvi asosida vaqtga bog‘liq hisoblash usuli (time-dependent solver) qo‘llanildi. Bu yondashuvda interfeys (fazalar chegarasi) harakati Level Set tenglamasi orqali ifodalanib, oqimdagi harakat va bosim parametrlarining o‘zgarishi RANS tenglamalari bilan modellashtirildi. Hisoblashda vaqt bo‘yicha differensial tenglamalarni yechish uchun BDF (Backward Differentiation Formula) metodi tanlandi, bu esa yuqori barqarorlik va aniqlikni ta’minladi.

Vaqt bo‘yicha har qanday o‘zgaruvchi (t) ning hosilasi quyidagicha differensiallashtiriladi:

$$\frac{du}{dt} \approx \sum_{j=0}^k \alpha_j u^{n-j}. \quad (7)$$

bu yerda: u^{n-j} vaqtning oldingi, j -bosqichlaridagi qiymatlari, α_j BDF koeffitsiyentlari (qadam tartibiga bog‘liq), k BDF tartibi (COMSOL’da odatda $k=1$ yoki $k=2$ tanlanadi)

BDF metodining asosiy afzalligi barqarorligi. Bu metod xatto katta vaqt qadamlarida ham yechimni buzilmasdan davom ettirish imkonini beradi, bu esa ikkita faza chegarasida sodir bo‘ladigan keskin o‘zgarishlar uchun muhim hisoblanadi.


COMSOL’da vaqt oralig‘i quyidagicha belgilanadi:

$$t \in [0, T], \quad t_0 = 0, \quad \Delta t = 0.01s, \quad T = 10000s \quad (8)$$

Vaqt qadamining uzunligi avtomatik tanlanadi, barqarorlik va aniqlikka qarab, lekin maksimal va minimal chegaralar orqali nazorat qilinadi. Bu modelda “Free” time stepping ishlatilgan, bu esa tizimdagi fizik holatlarga mos ravishda vaqt qadamini dinamik o‘zgartirish imkonini beradi.


Yuqorida keltirilgan RANS-SST/Level Set tenglamalari bu nolinci, bog‘langan va ko‘p parametrlil PDE (qisman differensial tenglamalar) tizimi hisoblanadi. Bunday tizimni bevosita to‘g‘ridan-to‘g‘ri yechish hisoblash resurslari nuqtai nazaridan juda qimmat bo‘lib, ko‘pincha barqarorlik muammolarini keltirib chiqaradi. Shuning uchun COMSOL’da Segregated solver (bo‘linma yechim yondashuvi) ishlatiladi. 3-rasmda har bir sekundda qayd etilgan tezlik izoliniyalarining o‘zgarishi batafsil ko‘rsatilgan. Ushbu grafik tezlik taqsimoti vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarishini ko‘rsatib, oqim dinamikasini kuzatish imkonini

beradi. Tezlik izoliniyalari turli xil tezlik xususiyatlariga ega bo'lgan hududlarni ko'rsatadi, bu esa oqimlarning harakatlanishini vizualizatsiya qilish va yuqori hamda past tezlikdagi asosiy hududlarni aniqlash imkonini beradi. Bu ma'lumotlar oqimning turli sharoitlardagi xatti-harakatlarini tushunish va uning sirtlar va tizimning boshqa elementlari bilan o'zaro ta'sirini keyingi tahlil qilish uchun juda muhimdir.




3-rasm. Tezlik izoliniyalarining o'zgarishi.

4-rasmda suyuqlikning konussimon zatvorga beradigan bosimining o'zgarishi ko'rsatilgan. Ushbu grafik bosimning zatvor yuzasi bo'ylab qanday taqsimlanishini va vaqt o'tishi bilan o'zgarishini ko'rsatadi. Bosimning o'zgarishiga turli omillar, masalan, oqim tezligining o'zgarishi, turbulent ta'sirlar yoki tizimning kirish va chiqishidagi o'zgaruvchan sharoitlar sabab bo'lishi mumkin. Ushbu ma'lumotlarni tahlil qilish turli ish rejimlarida zatvora tushadigan yuklamani tushunish imkonini beradi, bu esa uning optimal loyihalash va ishonchli ishlashini ta'minlash uchun muhimdir.







4-rasm. Bosimning o'zgarishi

5-rasmda chiqish joyida 10 metr masofada suvning 5 ta kesimi ko'rsatilgan.





5-rasm. Chiqish qismidan 10 metr oraliq masofada joylashgan suvning beshta uchastkaga bo'lingan Kesimi

6-rasmda ko'rsatilgan beshta bo'limda tezlikning o'zgarishi keltirilgan. Ushbu grafik tizim yoki modelning turli qismlaridagi oqim tezliklarini aniq taqqoslash imkonini beradi. Turli bo'limlardagi tezlik ma'lumotlarini tahlil qilish tizimning turli nuqtalarida oqimning taqsimlanishi va intensivligini tushunishga, yuqori yoki past tezlikka ega bo'lishi mumkin bo'lgan hududlarni aniqlashga, shuningdek, energiya yoki resurslardan yanada samarali foydalanishga yordam beradi.





6-rasm. Beshta bo'limda tezlikning o'zgarishi.

Ushbu paragraf davomida Comsol Multiphysics dasturiy paketida SST (Shear Stress Transport) modelidan foydalangan holda konussimon zatvor atrofidagi turbulent oqimlar tahlil qilindi.



7-rasm. Ikki fazali muhitdagi suvning konsentratsiyasi.

SST modeli turbulent oqimlarni tahlil qilish uchun samarali vosita bo'lib chiqdi. Undan foydalanish klapan atrofida tezlik va bosimning taqsimlanishi haqida batafsil ma'lumot olish imkonini berdi.



8-rasm. Qiya sirdagi suvning bosimini o‘zgarishi

Konussimon zatvor yuzasidagi bosimning o‘zgarishi uning ishlashi va samaradorligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, bosim taqsimoti bir xil emas va zatvorning ish rejimiga bog‘liq.

Tizimning turli qismlarida tezlikning o‘zgarishi samaradorlikni baholash va konstruksiyani optimallashtirish uchun asosiy parametr hisoblanadi. Kuzatilayotgan tezlikning o‘zgarishi oqimning qarshiligi yuqori bo‘lishi mumkin bo‘lgan tor joylar yoki hududlarni ko‘rsatishi mumkin. Ushbu paragraf natijalaridan konussimon zatvorlar konstruksiyasini takomillashtirish va optimallashtirish uchun foydalanish mumkin.


Dissertatsiya ishining **“Karkidon suv omborining bosimli suv tashlagichlarida qarshilik va sarf koeffitsientlarining gidrodinamik hisobi”** deb nomlangan uchinchi bobida suv chiqarish inshootidagi sarf koeffitsienti hamda kirish qismidagi qarshilik koeffitsientlarini aniqlash uchun gidrodinamik hisoblash bo‘yicha nazariy tadqiqotlar olib borilgan. Sarf koeffitsientini aniqlash jarayonida suv tashlagichning kirish qismidan chiqish kesimigacha bo‘lgan barcha uchastkalar bo‘yicha qarshilik koeffitsientlari yig‘indisi hisobga olinadi. Yig‘indini shakllantirishda har bir qarshilik koeffitsienti suv tashlagichning chiqish kesimi maydoniga keltiriladi. Agar suv oqimi zatvor ostidan chiqayotgan bo‘lsa, u holda qarshilik koeffitsientlari siqilgan kesim maydoniga nisbatan keltiriladi. Agar suv tashlagich 0–1 va 1–2 uchastkalaridan tashkil topgan bo‘lib, 1–1 va 2–2 kesimlarida maydonlari mos ravishda ω_1 va ω_2 ushbu uchastkalar uchun qarshilik koeffitsientlari qiymatlari esa ξ_1 va ξ_2 ga teng bo‘lsa, u holda ξ_1 qarshilik koeffitsientini 2–2 kesimiga keltirish shuni inobatga olgan holda amalga oshiriladi, 0–1 uchastkadagi bosim yo‘qotishlari qaysi kesim tezligi orqali hisoblanganidan qat’iy nazar o‘zgarmaydi.

Buni inobatga olgan holda $\omega_1 \mathcal{G}_1 = \omega_2 \mathcal{G}_2$, $\mathcal{G}_1 = \frac{\mathcal{G}_2 \omega_2}{\omega_1}$ biz quyidagi ifodaga ega bo‘lamiz:

$$h_{\omega 0-1} = \zeta_1 \frac{\mathcal{G}_1^2}{2g} = \zeta_1 \left(\frac{\omega_2}{\omega_1} \right)^2 \frac{\mathcal{G}_2^2}{2g} \quad (9)$$


Shunday qilib, ω_B chiqishdagi yuzasi kichiklashgan bo‘limlarning umumiy qarshilik koeffitsienti n quyidagiga teng bo‘ladi:

$$\sum \zeta = \zeta_1 \left(\frac{\omega_B}{\omega_1} \right)^2 + \zeta_2 \left(\frac{\omega_B}{\omega_2} \right)^2 + \dots + \zeta_n \left(\frac{\omega_B}{\omega_n} \right)^2 = \omega_B^2 \sum_{i=1}^n \frac{1}{\omega_i} \quad (10)$$



9-rasm. Kirish qismidagi qarshilik koeffitsientlarining r/h va r/D nisbatlariga bog‘liqligi

a) – to‘rtburchak va doira shaklidagi kirish qismlar uchun
b) – qirrali va yumaloqlangan kirish qismi uchun



10-rasm. Burilishda bosimni hisoblash.

a) — gidrostatik bosimning tarkibiy qismi b) — kinetik bosim tarkibiy qismi
c) — to‘liq bosim d) — oqim egriligi bo‘yicha bosim taqsimotining qabul qilingan o‘zgarishi

Bosimli suv tashlagichning egri chiziqli qismi kesimida oqimning o‘rtacha tezligini ifodalovchi quyidagi ifoda hosil bo‘ladi:

$$u_x = \frac{g e^{\left(\frac{1}{R_1} - \frac{1}{R_2} \right) \frac{y^2}{2h} - \left(\frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} \right) \frac{y}{2}}}{1 + \left(\frac{1}{R_1} - \frac{1}{R_2} \right) \frac{h}{24}} \quad (11)$$

Kinetik bosim formulasini chiqarish uchun $p^* = \rho \int \frac{u_\theta^2}{r} dr$ tenglamadan kelib chiqib:

$$\frac{p^*}{\rho g} = \frac{1}{g} \int \frac{u_x^2}{r} dr \quad (12)$$

e^x funksiyasining qatorga yoyilishini inobatga olib, integrallashdan so‘ng quyidagini olamiz:

$$\frac{p^*}{\rho g} = \frac{g^2 \left[\left(\frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} \right) \frac{y}{2} - \left(\frac{1}{R_1} - \frac{1}{R_2} \right) \frac{y^2}{2h} - \left(\frac{1}{R_1} + \frac{1}{R_2} \right)^2 \frac{y^2}{4} + \left(\frac{1}{R_1^2} - \frac{1}{R_2^2} \right) \frac{y^3}{2h} - \left(\frac{1}{R_1} - \frac{1}{R_2} \right)^2 \frac{y^4}{4h^2} \right]}{g \left[1 + \left(\frac{1}{R_1} - \frac{1}{R_2} \right) \frac{h}{24} \right]^2} \quad (13)$$

Kinetik bosim ifodasini quyidagi ko‘rinishda yozib,

$$\frac{P^*}{\rho g} = C_{pi}^* \frac{g^2}{2g}$$

unda katta egrilik radiusiga ega quvur uchun, ($y = \frac{h}{2}$)

$$C_{p2}^* = \frac{2 \left[\left(\frac{1}{R_1} + \frac{3}{R_2} \right) \frac{h}{8} - \left(\frac{1}{R_1^2} + \frac{1}{R_2^2} \right) \frac{5h^2}{64} - \frac{3h^2}{32R_1R_2} + \left(\frac{1}{R_1^2} - \frac{1}{R_2^2} \right) \frac{h^2}{16} \right]}{\left[1 + \left(\frac{1}{R_1} - \frac{1}{R_2} \right) \frac{h}{24} \right]^2} \quad (14)$$

Ichki sirt (kichik egrilik radiusiga ega) quvur uchun ($y = -\frac{h}{2}$)

$$C_{p1}^* = \frac{-2 \left[\left(\frac{3}{R_1} + \frac{1}{R_2} \right) \frac{h}{8} - \left(\frac{1}{R_1^2} + \frac{1}{R_2^2} \right) \frac{5h^2}{64} + \frac{3h^2}{32R_1R_2} + \left(\frac{1}{R_1^2} - \frac{1}{R_2^2} \right) \frac{h^2}{16} \right]}{\left[1 + \left(\frac{1}{R_1} - \frac{1}{R_2} \right) \frac{h}{24} \right]^2} \quad (15)$$

Radiuslar R_1 , R_2 10-rasmga muvofiq aniqlanadi. Bu radiuslar egri uchastkaning ichki va tashqi R_1 , R_2 sirtlariga tegishli bo‘lib, ular oqimning burilish qismidagi gidravlik xususiyatlarni belgilab beradi. (11)-formula asosida hisoblangan qiymatlar tajriba natijalari bilan taqqoslanganda, ularning to‘liq mos kelmasligi kuzatildi. Bu tafovut amaliy sharoitlarda oqim strukturasi murakkabligi, devor (sirt) yaqinidagi turbulent zonalar va ikkilamchi oqimlarning hisobga olinmaganligi bilan izohlanadi. Shu sababli formulaga emperik tuzatma kiritish zarur deb hisoblandi. Bunday tuzatma hisobiy tezlik epyurasining tajriba natijalari bilan mos kelishini ham konsentrik joylashgan sirtlar holida, ham to‘g‘ri chiziqli suv o‘tkazuvchi quvurda ta‘minlaydi. Kiritilgan tuzatmani hisobga olgan holda formula quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

